



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2022 y. “26” yanvar

№ 5

Iste’mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasiga muvofiq, Davlat statistika qo‘mitasi **QAROR QILADI**:

1. Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 31- martdagi 8- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2022- yil "26" yanvar dagi
3-son qaroriga
ILOVA

Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) quyidagi tahrirda o'zgartirishlar kiritilsin:

1. Uslubiy nizomning 1-bandidagi "Davlat statistikasi to'g'risida" so'zlari "Rasmiy statistika to'g'risida" so'zlariga almashtirilsin;

2. Uslubiy nizomda keltirilgan "dehqon bozorlari" so'zlari "bozorlar" so'ziga almashtirilsin;

3. Uslubiy nizomning 2-bandi 6-xatboshisi va 6-bandi 5-xatboshisi chiqarib tashlansin;

4. Uslubiy nizomda keltirilgan "Davlat statistika ishlari dasturi" so'zlari "Statistika dasturi" so'zlariga almashtirilsin;

5. Uslubiy nizomning 6-bandi 2, 3, 4-xatboshilaridagi "blankasi" so'zi "so'rovnoma" so'ziga almashtirilsin;

6. Uslubiy nizomning 7-bandi 2-xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Agar Statistika dasturiga muvofiq, kuzatuv o'tkaziladigan kun dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, kuzatuvni o'tkazish kuzatuv o'tkazish kuniga yaqin bo'lgan boshqa kunga ko'chirilishi mumkin".